



**O‘ZBEKISTONDA "YASHIL IQTISODIYOT"NI
RIVOJLANTIRISH SALOHİYATIDAN SAMARALI
FOYDALANISH ISTIQBOLLARI VA MINTAQAVIY
XUSUSIYATLARI**

**XALQARO ILMİY-AMALIY
KONFERENSIYA**

26-aprel 2024-yil

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
ПЕРСПЕКТИВЫ И РЕГИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ
ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПОТЕНЦИАЛА
РАЗВИТИЯ «ЗЕЛеноЙ ЭКОНОМИКИ» В УЗБЕКИСТАНЕ**

26 апреля 2024 года

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE
PERSPECTIVES AND REGIONAL FEATURES OF THE
EFFECTIVE USE OF THE POTENTIAL OF THE
DEVELOPMENT OF THE "GREEN ECONOMY" IN
UZBEKISTAN**

April 26, 2024

Buxoro

МУНДАРИЖА

1-sho'ba. YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING GLOBAL VA MINTAQAVIY: MUAMMO, MODEL VA MEKANIZMLARI.....	3
O.X.Xamidov. O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish yo'lidagi strategik maqsadlar va islohotlar samaradorligi.....	Ошибка! Залка не определена.
D.Sh.Yavmutov. Yashil iqtisodiyot konsyepsiyasining shakllanishi va rivojlanishi	7
Рахматулла Эргашев, Зафар Мирзаев. Факторы, влияющие на экономический рост промышленных предприятий.....	10
Obidjon Khamidov, Dilshod Yavmutov, Sardorjon Burkhanov. The efficiency of green economy in the national economy of Uzbekistan and as an important factor of sustainable economic growth.....	14
Бирюков Валерий Викторович. О перспективах интеграции зеленых экономик в рамках ЕАЭС...	17
A.T.Jo'rayev. Aylanma iqtisodiyotni joriy qilish xususiyatlari	21
Кочкина Г.А., Магадиева А.Ж. Государственно-частное партнерство в рамках зеленой экономики Казахстана	22
Ахмедов К. Некоторые аспекты финансового состояния промышленного предприятия.....	28
Nutfillo Salimovich Ibragimov, Bekzod Sherzodovich Sharipov. Dunyo mamlakatlarida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonlari va milliy modelni ishlab chiqish mexanizmlari	31
Дарибеков С.С., Дарибекова Н.С. Зеленая экономика: ключевые принципы и возможности в предпринимательстве.....	36
S.S.Davlatov. O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror va inklyuziv urbanizatsiyani qo'llab-quvatlash.....	41
Rauandina Guldarai Kalkenovna. Green construction in Kazakhstan.....	44
Agzamov Avazxon Talgatovich, Saidmuratova Iroda Abdullayevna. Yashil iqtisodiyotga o'tishning global va mintaqaviy muammolari.....	45
B.I.Adizov. Yashil iqtisodiyot aoslangan hududlar va sohalarda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, bandlik va ta'limni rivojlantirish.....	49
R.S.Xoliqova. Yashil iqtisodiyotga o'tishning tashkiliy va huquqiy mexanizmlari	50
Хошимов П.З. Ўзбекистонда "Яшил иқтисодиёт"ни шакллантириш хусусиятлари	52
A.D.Ravshanov, O.Amirqulov. Qishloq xo'jaligini "yashil iqtisodiyot" asosida barqaror rivojlantirish yo'llari	55
Самиева Гулноза Тохировна. Ўзбекистонда органик кишлок хўжалигини ривожлантириш – "яшил иқтисодиёт" асосидир	57
Qambarov Sanjar Sodiq o'g'li, Muxiddinov Nasimbek Raxim o'g'li. O'zbekistonda yashil iqtisodiyot (rivojlangan davlatlar tajribasi)	61
Toymbayeva Dilnoza Abdijabbor qizi. Yashil iqtisodiyot kontsepsiyasi, uning samaradorligi va rivojlanish strategiyalari	63
Aliqulov Humoyun Tohir o'g'li. "Yashil iqtisodiyot" – kelajak iqtisodiyoti	66
Saidova Feruza Kamolovna, Fatilloev Farrux Farhod o'g'li. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotga o'tishning global va mintaqaviy muammolari.....	67
Narzullayeva Gulchehra Salimovna. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish yo'llari.....	69
Azimov Olimjon Orifovich, Durdiqilichova Ruxshona Maxkamovna. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotini rivojlantirish salohiyatidan samarali foydalanish istiqbollari va mintaqaviy xususiyatlari.....	72
Narziyeva Dilafiruz Muxtorovna. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.....	74
Azimov Olimjon Orifovich, Ismigul Abduxakimova. "Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari.....	76
Эргашев Миржон Ёркин ўғли. Мамлакат ташки савдоси статистикасини шаклланиш жараёнлари ва уни такомиллаштириш йўллари	80
Кайимова З.А., Хикматов А. Приоритетные направления Узбекистана: переход к «зеленой экономике».....	84
Amonov S.Z., Raxmonov Rustam. Yashil iqtisodiyotga o'tish yo'nalishlari va ustuvor xususiyatlari	86
Abduraxmanova Zuxra Tohir qizi. O'zbekistonni "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonida ichki bozor konyunkturasining o'zgarishi.	87
Toymbayeva Dilnoza Abdijabbor qizi, Altibayeva Muxayyo Begimqulovna. "Yashil iqtisodiyotni "ni rivojlantirish yo'nalishlari.	88

рассчитывается с использованием объёма прибыли до выплаты процентов и налогов, а не прибыли до выплаты налогов как в случае расчета рентабельности вложенного капитала.

Для акционеров и владельцев наибольший интерес представляет такой финансовый инструмент как прибыль с акционерного капитала. Прибыль берется в размере, который акционеры считают своей собственностью, т. е. после выплаты процентов и налогов.

Такая прибыль с собственного (акционерного) капитала - ключевой инвестиционный показатель, характеризующий норму прибыли, полученной акционерами на вложенный в компании капитал.

При работе с финансовыми коэффициентами важно для получения точной оценки исчислять несколько показателей. Все эти инструменты нужны для того, чтобы объективно оценить «финансовое здоровье» предприятия, стабильность его финансовой структуры. Заключение о финансовой состоянии предприятия выносится с учетом общеэкономической конъюнктуры и ситуации в конкретной отрасли.

Литература.

1. Виленский П.Л., Лившиц В.И., Орлова Е.Р., Смоляк С.А. Оценка эффективности инвестиционных проектов. - М.: Дело, 1998.
2. О несостоятельности (банкротстве) предприятий. - М.: Буквица, 1998.
3. Копасс Б. Управление финансовой деятельностью предприятия. - М.: Финансы, ЮНИТИ, 1997.
4. Сажина М.А., Майстренко А.В. Условия кредитоспособности Российского предприятия. - М.: «Финансы», № 8, 1998.

Nutfillo Salimovich Ibragimov

*Buxoro Davlat Universiteti, Iqtisodiyot va turizm kafedra
mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Bekzod Sherzodovich Sharipov

*Buxoro Davlat Universiteti, ziyorat turizmi mutaxassisligi 2-
kurs magistranti.*

DUNYO MAMLAKATLARIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH JARAYONLARI VA MILLIY MODELNI ISHLAB CHIQISH MEXANIZMLARI

Kirish. 21-asrda “yashil” iqtisodiyot ko‘plab tadqiqotchi olimlar fikriga ko‘ra iqtisodiy rivojlanishning yangi paradigmasiga aylandi¹ va ilmiy hamjamiyatda ham ommaviy axborot vositalarida ham keng muhokama qilinmoqda². O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarorining v bandida “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘shishni ta‘minlash bo‘yicha harakatlar rejasi” tasdiqlangan bo‘lib, 2050-yilgacha mamlakatni kam uglerodli rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqish va tasdiqlash, energiya samaradorligini ta‘minlash bo‘yicha yechimlarni hamda keng miqyosda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini faol joriy etish, barcha tarmoqlarning rivojlanish strategiyalarini “yashil” o‘shish maqsadlari bilan muvofiqlashtirish, “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni modellashtirish va prognozlashtirish vositalarini ishlab chiqish ko‘zda tutilgan. Shunga muvofiq yashil iqtisodiyotga o‘tishda ilg‘or xorij tajribasini chuqur tadqiq qilish, bunda iqtisodiyot tarmoqlari ishtirokining ko‘lami va darajalarini aniqlash, milliy modelni ishlab chiqish va uni ilmiy jihatdan asoslash kabi fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish milliy iqtisodiyotning barqaror o‘shishini ta‘minlashga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon iqtisodiyotining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishi bilan bog‘liq jarayonlar 1992-yilda BMT ning Rio De Janeyroda “Sayyorani qutqarishga so‘nggi imkoniyatimiz” shiori ostida o‘tkazilgan konferensiyasidan so‘ng boshlandi deyish mumkin.

“Yashil” iqtisodiyotning nazariy va metodologik asoslanishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlardan R.Braun, W.Hynes, P.Hawken, D.Jaeger, E.Solheim, G.Brunland, M.Kennet, Sh.Wang, D.Meadows, P.Ardakanian va boshqa bir qator olimlarning izlanishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

¹ Bautin V.M. "Green" economy as a new paradigm of sustainable development / V.M. Bautin // Proceedings of the TSAA, issue 2, 2012

² Каминов А.А., Ануфриев В.П. Методологические подходы к исследованию зеленой экономики// Экономика: вчера, сегодня, завтра. 2019. Том 9. № 11А. С. 61-74. DOI: 10.34670/AR.2020.93.11.007

“Yashil” iqtisodiyot konsepsiyasi davlat boshqaruv sohasi hamda biznes sohasi vakillari uchun juda jozibador deyishimiz mumkin, boisi u bir vaqtning o‘zida ishsizlik muammolarini hamda atrof-muhitni asrash bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan¹.

“Yashil” iqtisodiyot konsepsiyasi atrof-muhitga ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishini kamaytirish, iqlim o‘zgarishini kuzatish, shuningdek, resurs va energiyani tejash nuqtai nazaridan yangi texnologiyalarni ishlab chiqishga yordam beruvchi texnologiyalar va uskunalarni ishlab chiqish va joriy etishni nazarda tutadi².

“Yashil” iqtisodiyot so‘zi ilmiy hamjamiyatga Devid Pirsning “Yashil iqtisodiyot uchun ko‘k nashr”(Blue print for a green economy) kitobidagi g‘oyalar asnosida tanildi deyish mumkin. Undagi asosiy tushunchaga ko‘ra narxlardagi mavjud tizim tufayli iqtisodiyotda resurslarni taqsimlash atrof-muhit zararlanishi hisobiga yuzaga keladi. Ekologik aktivlar hamda xizmatlar ishlab chiqarish resurslari sifatida qaralib, ayrim asosiy tarmoqlarda ortiqcha, ayrimlarida esa past baholanadi natijada, tabiiy resurslardan samarasiz foydalanish holatlari yuzaga keladi va atrof-muhit degredatsiyasiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, atrof-muhitning ifloslantirilganligi uchun to‘lovlar aybdorlardan undirilmasdan qolaveradi, jamiyat bo‘yniga yuklanadi³. “Yashil” iqtisodiyot bevosita ekologik muammolarni bartaraf etish yoki ushbu muammolarni yuzaga keltiruvchi omillarni minimallashtirishni nazarda tutadi.

Neoklassik iqtisodchilar fikriga ko‘ra, ekologik muammolar tabiiy resurslardan samarasiz foydalanish(oqilona foydalanmaslik) va tabiiy kapitalning past baholanishi natijasida yuzaga keladi⁴.

Shvetsiyaning Lunda universiteti tadqiqotchi olimlari tomonidan sayyoramizdagi asosiy resurslarining tugab borayotganligiga oid maxsus model ishlab chiqilgan. Unga muvofiq narxlarning ko‘tarilib borishi, global inqirozlar ehtimolining oshib borishi natijasida temir ishlab chiqarish hajmi 2030-yilga borib o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga ko‘tariladi. Xuddi shunday ikkinchi yuqori ko‘tarilish 2060-yilda yana bir marotaba qayd etiladi va shundan so‘ng temir resurslari defitsiti boshlanishi prognoz qilingan. Oltin qazib olishda tanqislik davri 2070-yillarda boshlanadi. Metallar jumladan, platina guruhi uchun 2020-yillar eng yuqori cho‘qqi sifatida qayd etilgan bo‘lsa, qo‘rg‘oshin, kumush, rux uchun 2030-yil prognoz qilinmoqda. 2040–2050-yillarda mis, xrom, nikel, molibden iste‘moli eng yuqori cho‘qqisiga chiqqanidan keyin kamayish sodir bo‘ladi. Fosfat ishlab chiqarishning eng yuqori darajasi 2010 yilda sodir bo‘lgan bo‘lib, fosfor yetishmovchiligi 2040-yilda boshlanishi mumkin⁵.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda “yashil” iqtisodiyot tushunchasining mohiyati tahlil qilinib, dunyo mamlakatlarining “yashil” iqtisodiyoti barqaror suratlarda o‘tib borayotgan ko‘rsatkichlari solishtirilgan va o‘rganilgan. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar, mutaxassislarning energetik resurslar ishlab chiqarish va iste‘mol qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari yaqin istiqboldagi prognozlari solishtirilib, o‘rganilgan.

Tahlil va natijalar

Dunyo yetakchi mamlakatlarining yashil iqtisodiyotga o‘tish borasidagi harakat yo‘nalishlarini inobatga olish albatta foydali⁶ biroq, ularning konsepsiya va dasturlari ko‘p hollarda siyosiy xarakterga ega hujjatlarga asoslanadi⁷. Yashil iqtisodiyotga o‘tishda har bir mamlakat o‘zining ichki imkoniyatlaridan va muammolaridan kelib chiqqan holda turli yo‘nalishlarda ish olib borishi mumkin⁸. Demak, “yashil”

¹ Borel-Saladin, J.M., Turok, I.N., 2013. The green economy: Incremental change or transformation? Environ. Policy Gov. 23, 209–220. doi:10.1002/eet.1614; Eléonore Loiseau, L. Saikku, R. Antikainen, N. Droste, B. Hansjürgens, et al.. Green economy and related concepts: an overview. Journal of Cleaner Production, Elsevier, 2016, 139, pp.361-371.

□10.1016/j.jclepro.2016.08.024□. □hal-02604567□

² G.Sadikova. Yashil iqtisodiyotning mohiyati va uni qishloq xo‘jaligi sohasiga ta‘siri. Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya online ilmiy jurnali. Jild: 02 Nashr: 04 (2023) www.mudarrisziyo.uz

³ Acharya, Shreekar & Sequeira, Aloysius H.. (2012). A Model of Green Economy for Developing Countries. SSRN Electronic Journal. 10.2139/ssrn.2192369.

⁴ Borel-Saladin, J.M., Turok, I.N., 2013. The green economy: Incremental change or transformation? Environ. Policy Gov. 23, 209–220. doi:10.1002/eet.1614; Eléonore Loiseau, L. Saikku, R. Antikainen, N. Droste, B. Hansjürgens, et al.. Green economy and related concepts: an overview. Journal of Cleaner Production, Elsevier, 2016, 139, pp.361-371.

□10.1016/j.jclepro.2016.08.024□. □hal-02604567□

⁵ И. М. Потравный, А. Л. Новоселов, И. Б. Генгут Экономика региона. — 2016. — Т.12, вып. 2. — С. 438-450 doi 10.17059/2016-2-10 УДК 304.2 : 338.622 JEL: Q56

⁶ Hamilton, K. & Withaget, C. (2007). Saving Growth and the Path of Utility. Canadian Journal of Economics, 40(2), 703–713.

⁷ И. М. Потравный, А. Л. Новоселов, И. Б. Генгут Экономика региона. — 2016. — Т.12, вып. 2. — С. 438-450 doi 10.17059/2016-2-10 УДК 304.2 : 338.622 JEL: Q56

⁸ G.Sadikova. Yashil iqtisodiyotning mohiyati va uni qishloq xo‘jaligi sohasiga ta‘siri. Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya online ilmiy jurnali. Jild: 02 Nashr: 04 (2023) www.mudarrisziyo.uz

iqtisodiyotga o'tishning milliy modelini ishlab chiqish real zarurat hisoblanib, ma'lum bir modelni to'raligicha joriy etish samarasiz natijaga olib kelishi mumkin.

Xorij tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Germaniyada 2021-yilga kelib "yashil" energetikaning ulushi 41 % ga, 2022-yilda esa 47 % ga yetgan. 2022-yilda umumiy elektr energiyasi iste'moli ulushida esa bu ko'rsatkich 49 % ni tashkil etgan¹. 2023-yilda Germaniya energetikasi tarixida ilk marotaba "yashil" energetikaning ulushi 50 % dan oshib ketdi. 2023-yilning may hamda iyul oylarida elektr energiyasidagi ulush hattoki 57 hamda 59 % gacha ko'tarildi. Umumiy hisobda 2023-yilda Germaniyada 267 milliard kilovatt soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan. Bu borada shamol generatorlarining ulushi 113,5 milliard kilovatt soat ko'rsatkichni qayd etgan².

Energetika va iqlimni o'rganish guruhi(ECIU) va Britaniya sanoati konfederatsiyasi(CBI) hisobotida keltirilishicha 2023-yilda Buyuk Britaniya yashil iqtisodiyoti 9 % ga o'sib, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, elektromobillar ishlab chiqarish hamda yangi texnologiyalarni ishlab chiqish kabi yo'nalishlarni o'zida birlashtirgan tarmoq sifatida mamlakat budjetiga 74 milliard funt sterling olib kelgan. Yana bir e'tiboli jihat sohada 765 ming kishi ish o'rni bilan ta'minlangan va ularning o'rtacha oylik ish haqqi 10 ming funt sterlingni tashkil etgan, qo'shimchasiga faoliyat samaradorligi boshqa sohalarda band insonlarga nisbatan 50 % samaraliroq ekanligi aniqlangan³. Britaniya hukumati 2035-yilga kelib quyosh panellaridan 75 gigavatt energiya olishni hamda issiqlik nasoslari sonini 60 mingtaga yetkazishni, 2050-yilga borib uglerod neytralligiga erishishni maqsad qilgan⁴.

2022-yilda Xitoyda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi 50 % ga yetdi va 2023-yilda bu ko'rsatkich 53 % dan oshdi. 2023-yilda umumiy quvvati 210 gigavattli quyosh elektrostansiyalari ishga tushirildi. Xitoyning yangi ishga tushirilishi rejalashtirilayotgan quyosh, shamol, gidro hamda atom quvatlari har yili o'rtacha 423 teravatt soatlik energiya ishlab chiqarishi prognoz qilinmoqda. Misol uchun mamlakat shimoli g'arbidagi Gansu provinsiyasining o'zida 20 gigavattlik Syusyuan shamol elektrostansiyasini qurish rejalashtirilmoqda. Umumiy olgan Xitoyning cho'l mintaqalarida jami 450 gigavatt quvvatga ega qayta tiklanuvchi energiya manbalari bunyod etilmoqda. 2023 yilda toza energetika mamlakat iqtisodiyotiga 1,6 trillion dollar olib keldi. Bu ko'rsatkich 2022-yil bilan solishtirganda 30 % ga ko'p demakdir⁵.

Koreya Respublikasida "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish "Fan, axborot texnologiyalari va rejalashtirish vazirligi" tomonidan olimlar va ishbilarmon doiralar vakillari bilan birgalikda ishlab chiqilgan "Raqamli transformatsiyaning bosh rejasini" (Digital New Deal) doirasida olib borilmoqda. Ushbu reja mamlakat rahbariyati tomonidan 2020-yilda qabul qilingan Ushbu rejaning muhim tarkibiy qismi "Yashil o'zgartirishga qaratilgan yangi yo'nalish" (Green New Deal) hisoblanib, atmosferaga zararli moddalar chiqarilishi nol miqdorga tushirishni maqsad qilgan. Barcha moliyaviy ajratmalarning deyarli yarmi 73,4 trln von, shu jumladan, davlat byudjetidan 42,2 trln von ushbu sohaga yo'naltirilgan. Xususan, uning doirasida 8 ta yirik milliy loyihalarni realizatsiya qilish hisobiga 659 mingta yangi ish o'rni yaratish ko'zda tutilgan. 2023-yilga borib elektromobillar ishlab chiqarish quvvatini 1,13 million donaga yetkazish rejalashtirilmoqda⁶.

Qo'shni Qozog'iston mamlakatida "yashil" iqtisodiyotga o'tishning 3 bosqichli tizimi ishlab chiqilgan:

Birinchi bosqichda 2013-yildan 2020-yilgacha hukumat resurslardan foydalanishni optimallashtirishga asosiy urg'uni qaratib, tabiatni muhofaza qilish va "yashil" infratuzilmani yaratishga e'tibor beradi.

Ikkinchi bosqichda – 2020-yildan 2030-yilgacha – shakllantirilgan "yashil" infratuzilma asosida suvdan oqilona foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini rivojlantirish hamda keng joriy etishni rag'batlantirishga qaratilgan milliy iqtisodiyotga o'tish, shuningdek, yuqori energiya samaradorligi standartlariga asoslangan obyektlarni bunyod etish ko'zda tutilgan.

Uchinchi bosqichda – 2030-yildan 2050-yilgacha milliy iqtisodiyot "uchinchi sanoat inqilobi" deb ataladigan tamoyillarga o'tadi. Bunda tabiiy resurslardan ularning yangilanishi va barqarorligini hisobga olgan holda foydalanishni nazarda tutadi.

¹ <https://aussiedlerbote.de/2022/07/kilovatt-chas-zelenyj/>

² <https://www.dw.com/ru/v-2023-godu-vie-vperve-obespecili-svyse-50-elektroenergii-v-frg/a-67758092>

³ <https://www.kommersant.uk/articles/zelenaya-ekonomika-v-britanii-stremitelno-rastet>

⁴ <https://afisha.london/2023/08/18/bum-zelyonoy-energii-pochemu-britantsy-perehodyat-na-solnechnye-paneli-i-teplovyje-nasosy/>

⁵ <https://www.ridus.ru/zelenaya-energetika-vytyanula-ekonomiku-kitaya-v-2023-godu-426869.html>

⁶ В.Д. Андрианов. Республика Корея на пути построения зеленой экономики. Вестн. Моск. ун-та. Сер. 13. Востоковедение. 2023. Т. 67, № 3. С. 161–179 Lomonosov Oriental Studies Journal, 2023, Vol. 67, No. 3, pp. 161–179 (In Russ.)

2015-yilda imzolaniб 2016-yilning 4-noyabrida kuchga kirgan “Parij bitimi” da ekologik muammolarni bartaraf etishga doir qator chora tadbirlar koʻzda tutilgan boʻlib, bu iqlim oʻzgarishlarini kamaytirish borasida katta qadamlardan boʻldi deyish mumkin.

Xalqaro energetika agentligining maʼlumotlariga koʻra 2050-yilga kelib ishlab chiqilayotgan past uglerodli energetika texnologiyalarining deyarli yarmi prototiplar holiga kelib ulguradi va dastlabki amaliy sinov jarayonlarini boshlaydi. 2070-yilga borib 30 foiz texnologiyalar ustida ekspulatsiyaga berilishi uchun davomiy ish olib borish hamda yangidan yangi investitsiya resurslarini yoʻnaltirishga togʻri keladi¹.

Zamonaviy “yashil” iqtisodiyot “yashil” obligatsiyalarsiz rivojlanmaydi. Yashil obligatsiyalar bu obligatsiyalarning shunday turiki, ular mavjud yoki yangi yashil loyihalarni toʻliq yoki qisman moliyalashtirish yoki qayta moliyalashtirish uchun qoʻllaniladi. Yashil loyihalar deganda atrof-muhitga va ekologiyaga zararsiz boʻlgan, yaʼni qayta tiklanuvchi energiya, ekologik toza transport vositalari, yashil inshootlar qurish, barqaror chiqindi boshqaruvi, yer resurslaridan barqaror foydalanish, biologik xilma-xillik va toza ichimlik suvi kabi loyihalar tushuniladi. Yashil obligatsiyalar bilan uni muomalaga chiqaruvchi oʻzining yashil loyihalarini moliyalashtirishi mumkin boʻladi. Investorlar esa oʻz investitsiyalari uchun oʻzgarimas qaytimni foiz koʻrinishida olishadi. Yashil obligatsiyalar ham barcha korporativ obligatsiyalar singari ishlaydi, ammo uni muomalaga chiqaruvchi yashil obligatsiyalardan tushgan mablagʻlarni faqat yashil loyihalar uchun ishlatish masʼuliyatini oladi². Demak, “yashil obligatsiyalar tizimini togʻri yoʻlga qoʻyish orqali atrof-muhitga zararli taʼsirlarni kamaytirish hamda iqtisodiyot tarmoqlarini qoʻllab-quvvatlashni yanda samarali olib borish mumkin boʻladi.

Bugungi kunda ekologik bozorda ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi 600 milliarddan 2 trillion dollargacha baholanadi hamda yiliga oʻrtacha 5-7 foizlik oʻsish tempini namoyish etmoqda³. Maʼlumotlarga koʻra, Oʻzbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy potentsiali 51 milliard tonna neft ekvivalentiga teng boʻlib, texnik imkoniyatlari esa 179 million tonna neft ekvivalentini tashkil etadi. Ushbu koʻrsatkich mamlakat boʻyicha yiliga isteʼmol qilinadigan energiya hajmidan qariyb 2,5 barobarga koʻp. Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish 447 million tonna uglerod oksidi, oltingugurt birikmalari, azot oksidlari va boshqa ifloslantiruvchi moddalarning hamda parnik gazlarning atmosfera havosiga tashlanishining oldini oladi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi qariyb 10 foizdan ziyodni tashkil etmoqda. Bu borada Oʻzbekiston 2030 yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatini 27 gigavattga yetkazib, elektr energiyasi ishlab chiqarish umumiy hajmining kamida 40 foiziga olib chiqishni maqsad qilib oldi. Bu har yili 25 milliard kub metr tabiiy gazni iqtisod qilish, atmosferaga zararli tashlanmalarni 34 million tonnaga qisqartirishga xizmat qiladi⁴.

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda ekologik muammolarni bartaraf etish va yashil iqtisodiyotga oʻtishni jadallashtirish borasida bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, 2023-yilda Oʻzbekistonda “Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qoʻllash” (iCRAFT) loyihasini amalga oshirish maqsadida Jahon Banki tomonidan 46,25 mln AQSh dollari miqdorida mablagʻ ajratilgan boʻlib, unga muvofiq asosiy yoʻnalishlar belgilab olingan(2-jadval).

2-jadval

“Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qoʻllash” loyihasining asosiy yoʻnalishlari va ularga ajratiladigan mablagʻlar miqdori⁵

Asosiy yoʻnalishlar	Moliyalashtirishning taxminiy miqdori (mln AQSh doll.)
Qisqartirilgan emissiyalarni sotib olish	
UNFCCC talablari asosida monitoring, hisobot va tekshirish (MRV) tizimini ishlab chiqish	

¹О международном опыте разработки и внедрения принципов, мер и механизмов «зелёной» экономики. Аналитический доклад «О международном опыте разработки и внедрения принципов, мер и механизмов «зелёной» экономики подготовлен в рамках реализации в 2021 г. пунктов 8.3.4., 8.3.5., 8.3.6., 8.3.7. Плана мероприятий по реализации Стратегических направлений развития евразийской интеграции до 2025 г.

² Bannarov, F. (2022). Yashil obligatsiyalar va ularning keng koʻlamli rivojlantirish imkoniyatlari . MOLIYA VA BANK ISHI, 8(3), 68–72. Retrieved from <https://journal.bfa.uz/index.php/bfaj/article/view/34>

³ Тренды в развитии зеленого бизнеса: опыт стран ЕС и российская практика : монография / О. А. Козлова, И. А. Волкова. — Москва : Знание-М, 2020. — 130 с.

⁴<https://uza.uz/oz/posts/boriy-alixonov-iqtisodiyotning-eski-modelini-yengib-yashil-taraqqiyotga-otish-vaqti-keldi-570311>

⁵ “Jahon banki ishtirokida “energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qoʻllash” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.08.2023 yildagi PQ-271-son.

Issiqxona gazlari kadastri (<i>rasmiy statistika ma'lumotlariga asoslangan issiqxona gazlarining chiqarilishi va tutib qolinishini tavsiflovchi tizimlashtirilgan ma'lumotlar jamlanmasi</i>)	6,00
Issiqxona gazlari reyestri (<i>issiqxona gazlarining chiqarilishi to'g'risida hisobotlarni o'z ichiga olgan axborot tizimi</i>)	
Uglerod birliklari reyestri (<i>"yashil" loyihalar ro'yxatdan o'tkaziladigan, uglerod birliklari va ular bilan bog'liq operatsiyalar hisobi yuritiladigan axborot tizimi</i>)	
Ma'lumot va axborot markazi	2,00
"Yashil" o'sish va uglerod savdosi bo'yicha quyidagi vazirlik va idoralarning salohiyatini oshirish: Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Energetika vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Strategik islohotlar agentligi, Gidrometeorologiya xizmati agentligi	
Parij bitimi 6-moddasiga muvofiq Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzurida Loyihani amalga oshirish guruhini tashkil etish (<i>issiqxona gazlari emissiyasi savdosi, loyihalarni ko'rib chiqish, MRV, iCRAFT loyihalarini muvofiqlashtirish, monitoring yuritish va boshqalar</i>)	7,00
Milliy qonunchilik bazasini tayyorlash	
Loyihani amalga oshirish guruhi (markazi)ning nizomini tayyorlash	
UNFCCC talablari asosida loyihani ko'rib chiqishning milliy qoidalarini tayyorlash	
Xalqaro bozorlarda birinchi uglerod sotilishiga qadar moliyalashtirish (ish haqi, texnika)	
"Yashil energiya" sertifikatlari yagona elektron platformasini ishga tushirish	

Fikrimizcha, "Yashil" iqtisodiyotga o'tish modelining asosini ishlab chiqish 7 ta tizimni aniqlashni o'z ichiga oladi¹:

1. O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyot modeliga o'tishning sabablari va mavjud shart-sharoitlarning darajasi.

2. "Yashil" iqtisodiyot tarmoqlari va yo'nalishlari.
3. "Yashil" iqtisodiyotga o'tishning asosiy tamoyillari.
4. Barqaror "yashil" iqtisodiyotni yaratish imkoniyatlari.
5. Mavjud muammolar ko'lami va ularni bartaraf etishning imkoniyatlari.
6. "Yashil" iqtisodiyotni muvaffaqiyatli joriy etayotgan mamlakatlar tajribasi.
7. Strategik maqsadlar va kutilayotgan natijalar

Xulosa va takliflar

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida iqtisodiy islohotlar faol tarzda olib borilar ekan mamlakatning mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib, 2030-yilgacha bo'lgan muddatda "yashil" iqtisodiyotga o'tishni jadallashtirish va strategik qadamlarni ishlab chiqish va izchil olib borish ustuvor masalalar sirasiga kiradi.

Bugungi kundagi dolzarb ekologik xavflarni inobatga olib, resurslarni boshqarish tizimini qayta ko'rib chiqish, energiya manbalaridan oqilona foydalanish, texnologik modernizatsiyani jadallashtirish rivojlanishning o'rta va uzoq istiqboldagi tempini belgilab beradi. Xorij mamlakatlarining yashil energetika tizimini rivojlantirib borayotganligi, energiya ishlab chiqarish hajmlarining misli ko'rilmagan darajada ulkan ekanligi hamda erishilayotgan yutuqlar Yevropa mamlakatlari modeli hamda janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari modellarining milliy "yashil" iqtisodiyot modeliga mavjud imkoniyatlar ko'lamidan kelib chiqib joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Fikrimizcha, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishda quyidagi takliflar o'rinli bo'ladi:

1. Iqlim o'zgarishlarining qayta tiklanuvchi energiya manbalariga ta'sirini o'rganish hamda yaqin va uzoq istiqboldagi natijalarni prognozlash.
2. Atrof-muhit muhofazasiga oid chora tadbirlarning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish.

¹ Adabiyotlarni o'rganish natijasida muallif tomonidan tuzilgan

3. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobidan olingan energiyani saqlash texnologiyalarini rivojlantirish.
4. Elektromobillar ishlab chiqarishni joriy etish, texnologiya va ehtiyot qismlarni mahalliyashtirish.
5. Sug'orish texnologiyalarini zamonaviylashtirishni jadallashtirish.
6. "yashil" iqtisodiy hududlar reytingini joriy etish va yuqori ko'rsatkichli hududlarni rag'batlantirish chora-tadbirlari rejasini ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Jahon banki ishtirokida "energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo'llash" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.08.2023 yildagi PQ-271-son.
2. Acharya, Shreekar & Sequeira, Aloysius H.. (2012). A Model of Green Economy for Developing Countries. SSRN Electronic Journal. 10.2139/ssrn.2192369.
3. Bannapov, F. (2022). Yashil obligatsiyalar va ularning keng ko'lamlı rivojlantirish imkoniyatlari . MOLIYA VA BANK ISHI, 8(3), 68–72. Retrieved from <https://journal.bfa.uz/index.php/bfaj/article/view/34>
4. Bautin V.M. "Green" economy as a new paradigm of sustainable development / V.M. Bautin // Proceedings of the TSAA, issue 2, 2012
5. Borel-Saladin, J.M., Turok, I.N., 2013. The green economy: Incremental change or transformation? Environ. Policy Gov. 23, 209–220. doi:10.1002/eet.1614;
6. Eléonore Loiseau, L. Saikku, R. Antikainen, N. Droste, B. Hansjürgens, et al.. Green economy and related concepts: an overview. Journal of Cleaner Production, Elsevier, 2016, 139, pp.361-371. □10.1016/j.jclepro.2016.08.024□. □hal-02604567□
7. G.Sadikova. Yashil iqtisodiyotning mohiyati va uni qishloq xo'jaligi sohasiga ta'siri. Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya online ilmiy jurnali. Jild: 02 Nashr: 04 (2023) www.mudarrisiyo.uz
8. Hamilton, K. & Withaget, C. (2007). Saving Growth and the Path of Utility. Canadian Journal of Economics, 40(2),
9. В.Д. Андрианов. Республика Корея на пути построения зеленой экономики. Вестн. Моск. ун-та. Сер. 13. Востоковедение. 2023. Т. 67, № 3. С. 161–179 Lomonosov Oriental Studies Journal, 2023, Vol. 67, No. 3, pp. 161–179 (In Russ.)
10. И. М. Потравный, А. Л. Новоселов, И. Б. Генгут Экономика региона. — 2016. — Т.12, вып. 2. — С. 438-450 doi 10.17059/2016-2-10 УДК 304.2 : 338.622 JEL: Q56
11. Каминов А.А., Ануфриев В.П. Методологические подходы к исследованию зеленой экономики// Экономика: вчера, сегодня, завтра. 2019. Том 9. № 11А. С. 61-74. DOI: 10.34670/AR.2020.93.11.007
12. Тренды в развитии зеленого бизнеса: опыт стран ЕС и российская практика : монография / О. А. Козлова, И. А. Волкова. — Москва : Знание-М, 2020. — 130 с.

Дарибеков С.С.

к.э.н., профессор кафедры «Менеджмент»

НАУ Карагандинский исследовательский Университет

имени Е.А.Букетова

Дарибекова Н.С.

м.э.н., ст.преподаватель КарГУ

имени Абылкаса Сагинова

ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА: КЛЮЧЕВЫЕ ПРИНЦИПЫ И ВОЗМОЖНОСТИ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ

Аннотация: Экономическое развитие глобальной экономики привело к деградации окружающей среды. Стала очевидной необходимость перехода бизнеса к более ответственному и устойчивому виду предпринимательства. В статье рассматриваются принципы зеленой экономики и возможности, которые она предоставляет для предпринимательства.

Ключевые слова: «зеленая экономика», защита окружающей среды, конкурентоспособность, возобновляемые источники энергии, Концепция по переходу Республики Казахстан к «зеленой экономике».

В последние десятилетия становится все более ясным, что бизнес не может продолжать экономическую деятельность на прежних принципах, игнорируя окружающую среду.